



## ARTICLE INFO

Received: 26<sup>th</sup> October 2022  
Accepted: 06<sup>th</sup> November 2022  
Online: 09<sup>th</sup> November 2022

## KEY WORDS

*Qimmatli qog'oz, bank, fond, pul, YaIM, metod, rentabellik.*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati ahamiyatli hisoblanib, birinchidan, tijorat banklari fond bozorlarida faoliyat yuritish orqali nafaqat yuqori daromad olish, balki doimiy likvidligini saqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ikkinchidan, tijorat banklarini fond bozoridagi faoliyatini rivojlanishi bu axoli qo'lidagi to'planib qolgan bo'sh pul mablag'larini bank depozitlariga jalb qilish orqali qo'shimcha kapitalga ehtiyoj sezgan tarmoqlar o'rtasida taqsimlanishini va qayta taqsimlanishini rag'batlantiradi. Buning natijasida mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik hamda aholi turmush darajasini yaxshilanishi va iqtisodiy o'sish va YaIM o'sishi ta'minlanadi. Bundan tashqari, bozor iqtisodiyotining eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan qimmatli qog'ozlar bozori barqaror moliyaviy holatga ijobiy ta'sir ko'rsatib, mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishga keng yo'l ochadi [1].

## ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini o'rganish va uni

## TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAGI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

**Sobirov Jo'rabek**

XK MChJ "Freedom Finance"

Qimmatli qog'ozlar bilan  
ishlash bo'lim boshlig'i

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7307495>

## ABSTRACT

*Ushbu maqolada Respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati tahlil etilgan hamda rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqilgan.*

tartibga solishning nazariy va amaliy jihatlarini yetakchi xorijlik iqtisodchi olimlarning, jumladan, V.A. Galanov, V.M. Markova, Dj. Gitman, Ye.B. Shirinskaya, J. Smiz, O'. Sharp, Ya.M. Mirkin, Ya.O. Spitsin va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari, mamlakatimiz olimlari xususan I.L. Butikov, I.I. Alimov, N.X. Jumaev, N.G'. Karimov, T.I. Boboqulov Sh.Sh. Shoxahzamiylar ilmiy asarlarida tadqiq etilgan [2].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida bir vaqtning o'zida qimmatli qog'ozlar emitenti va qimmatli qog'ozlar sarmoyadori va investitsiya muassasasi bo'lib ishtirok etadi. Bu xususiyati bilan boshqa bozor qatnashchilaridan farq qilib turadi. Investitsiya muassasasi sifatida ishtirok etganda banklar quyidagi faoliyat turlari bilan shug'ullanadi [4]:

1. Vositachilik operatsiyalari.
2. Investitsion va moliyaviy maslahat berish.



3. Depozitar xizmat ko'rsatish operatsiyalari.

Tijorat banklarining depozitar xizmat ko'rsatish operatsiyalari horijiy banklar amaliyotida mavjud. Tijorat banki, depozitariydagi kabi, mijozning qimmatli qog'ozlarini saqlaydi, ularga bo'lgan xuquqlarini hisobga oladi, ularning harakati hisobini yuritadi. Qimmatli qog'ozlarni saqlash uchun banklar mijozlarga "depo" hisobraqamini ochadi va depozitar xizmat ko'rsatish shartnomasiga muvofiq ular bo'yicha qonunchilikda ruxsat etilgan barcha operatsiyalarni amalga oshiradi. Banklar har xil turdagi korxonalar, shu jumladan, investitsiya fondlari uchun depozitariy vazifalarini amalga oshirishi mumkin. O'zbekistonda qonunchilikka muvofiq depozitar faoliyat faqat ixtisoslashgan investitsiya muassasalari - depozitariylar tomonidagina amalga oshirilishi mumkin. Banklar ushbu vazifani bajarish huquqiga ega emas.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va yangilanishlar samarasi o'laroq iqtisodiyotda davlat ishtirokini strategik hamda iqtisodiy asoslangan darajaga qadar qisqartirish va raqobatni rivojlantirish, kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda iqtisodiyotni modernizatsiyalash uchun investitsiyalar jalb etishga qaratilayotgan e'tibor tufayli qimmatli qog'ozlar bozori ham iqtisodiyotimiz yuksalishida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib bormoqda.

Fond birjasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri moliyaviy barqaror jamiyatlarning qimmatli qog'ozlarini yanada ko'proq birja savdolariga jalb qilish, ularga qulay va kam xarajatli birja operatsiyalari orqali investitsiya

mablag'larini yo'naltirish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Birjalar va birja faoliyati to'g'risida"gi qonuni hamda "Toshkent" respublika fond birjasida qimmatli qog'ozlar bilan birja savdosi qoidalariga binoan, listing kompaniyalarining qimmatli qog'ozlari doimiy kotirovka qilinadi. Bu esa listingdagi qimmatli qog'ozlarning bozor bahosini aniqlash imkonini beradi.

O'tgan yil davomida fond birjasi tomonidan moliyaviy barqaror va likvidli aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog'ozlarini birja savdolariga qo'yish orqali eng ishonchli va sifatli qimmatli qog'ozlarni aniqlash imkoniyatini yaratish maqsadida faol ishlar amalga oshirildi.

Fond birjasi tomonidan aksiyadorlik jamiyatlarini listinga jalb qilish buyicha kurilayotgan chora-tadbirlar o'z samarasini berdi, jumladan, 2011 yilda listing kompaniyalari soni 4 tani tashkil etgan bo'lsa, 2016 yil yakuni bilan birja listingiga kiritilgan aksiyadorlik jamiyatlarning soni 100 tani tashkil etdi 2021-yilda bu kompaniyalar soni 191 tani tashkil kildi. Listing kompaniyalari tarkibiga tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, neft va gaz sanoati, yengil sanoat, qurilish mollari ishlab chiqaruvchi, agrosanoat kompleksi, energetika va metallurgiya tarmog'idagi hamda boshqa korxonalar kiritilgan.

## XULOSA VA MUNOZARA

Bugungi kunda O'zbekiston tijorat banklari o'zlarining qimmatli qog'ozlarini xalqaro bozorlarda sotish imkoniyati mavjud emas. Buning asosiy sabablaridan biri tijorat banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning nominal qiymati milliy valyutamiz so'mda belgilanadi bundan tashqari, respublika fond bozori xalqaro fond bozorlari bilan to'g'ridan to'g'ri savdolarini amalga oshirish mexanizmi



mavjud emas. Bu o'z navbatida mamlakatimiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarni sotib xorijiy valyutalarni jalb qilish va ularni investitsiyalash imkoniyatiga to'siqlik qilmoqda.

Yuqorida keltirilgan muommolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni taklif qilinadi.

-Tijorat banklarini qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini tartibga soluvchi meyoriy-xuquqiy bazasini mustahkamlash. Bunda, asosan investorlar huquqlarini himoya qilish borasidagi qonunchilik ijrosini ta'minlash hamda investorlar huquqlarini himoya qiluvchi institutlarni tashkil qilish.

- Tijorat banklarining dividend siyosatini takomillashtirish.

- Tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutalarda chiqariladigan qimmatli

qog'ozlar mexanizmni qaytadan ko'rib chiqish va rivojlantirish

Respublika fond bozori faoliyatini xalqaro moliyabozorlariga integratsiyalashuvini rag'batlantirish va takomillashtirish.

Yuqoridagi fikrlarimizni xulosa qilib, bugungi kunda barcha o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlar kabi mamlakatimiz tijorat banklarini qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati bilan bog'liq ba'zi bir mavjud to'siqlar bo'lib, bu muammolarni yechishda asosan qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantiruvchi va nazorat qiluvchi institutlarning roli axamiyatli hisoblanadi. Biz taxlilimiz natijalaridan kelib chiqib bergan taklif va tavsiyalarimiz mamlakatimiz banklarini qimmatli qog'ozlar bozorida rivojlanishida yaqindan yordam beradi.

## References:

1. A.V.Vaxabov, Sh.X. Xajibakiev, N.G. Muminov Xorijiy investitsiyalar .T.: "Moliya", 2019
2. Abdullaeva Sh. Z. " Bank ishi" T.-<<Moliya>> 2020.
3. Abdullaeva Sh. Z. Bank risklari va kreditlash. T.-<<Moliya>> 2013.

Alimov I.I. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU,2021.-195-225 betlar.